O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

2026-yil 25-26-sentabr

(2-qism)

JIZZAX-2026

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2026-yil 25-26-sentabr. 315-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., т.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD) dots., Norbekova B.Sh. p.f.f.d.(PhD) dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

why a particular expression occurs at a particular point and what it contributes to the developing discourse.

In conclusion, figurative language is a fundamental component of contemporary literary discourse rather than a collection of optional decorative devices. Metaphor, simile, personification, epithet, and hyperbole participate in the construction of imagery, characterization, evaluation, viewpoint, foregrounding, and reader response. Their stylistic value emerges from the interaction between linguistic form and textual context. Modern stylistics therefore moves beyond the simple identification of figures of speech and seeks to explain how figurative choices organize literary meaning. Such an approach makes it possible to connect detailed linguistic analysis with broader questions of interpretation and demonstrates why figurative language remains one of the most productive areas of stylistic research.

REFERENCES

1. Leech, G. N., Short, M. Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. 2nd ed. Harlow: Pearson Longman, 2007.

2. Simpson, P. Stylistics: A Resource Book for Students. London: Routledge, 2004.

3. Wales, K. A Dictionary of Stylistics. 3rd ed. London: Routledge, 2011.

4. Leech, G. N. A Linguistic Guide to English Poetry. London: Longman, 1969.

5. Short, M. Exploring the Language of Poems, Plays and Prose. London: Longman, 1996.

6. Stockwell, P. Cognitive Poetics: An Introduction. London: Routledge, 2002.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MAKON KATEGORIYASINING EKZISTENSIONAL KONSTRUKSIYALAR ORQALI VOQELANISHI

Quvandikova Dildora Ali qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

kuvandikovadildora4@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida makon kategoriyasining ekzistensional konstruksiyalar orqali voqelanishi qiyosiy-tipologik va struktur-semantik jihatdan tahlil qilinadi. O. Henry hamda Abdulla Qahhorning qisqa hikoyalari materialida ingliz tilidagi *there + be* modeli va lokativ inversiya, o‘zbek tilidagi *bor, yo‘q, turibdi* kabi birliklar hamda lokativ qurilmalarning funksional xususiyatlari yoritiladi. Tahlil ikki tilda mavjudlikning konseptual asosi umumiy bo‘lsa-da, uning lisoniy voqelanishida struktur-semantik asimmetriya kuzatilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: makon kategoriyasi, ekzistensionallik, lokativlik, mavjudlik, ekzistensional konstruksiya, struktur-semantik asimmetriya, qiyosiy tahlil.

Makon kategoriyasi obyektiv borliqdagi predmet va hodisalarning joylashuvi, o‘zaro fazoviy munosabati hamda muayyan fazoda mavjudligini lisoniy shaklda aks ettiruvchi murakkab semantik tizimdir. Uning muhim ko‘rinishlaridan biri ekzistensionallik bo‘lib, bunda predmetning ma’lum makonda mavjud yoki mavjud emasligi kommunikativ jihatdan aktuallashtiriladi. O‘zbek tilshunosligida mavjudlik bildiruvchi gaplarning mazmuniy asosini makon, predmet va ular o‘rtasidagi mavjudlik munosabati tashkil etishi qayd etiladi. Shu nuqtayi nazardan,

ekzistensional konstruksiyaning umumiy modeli MAKON + PREDMET + EKZISTENSIONAL MUNOSABAT tarzida belgilanishi mumkin. Ingliz va o‘zbek tillarida mazkur semantik model mushtarak bo‘lsa-da, uning grammatik kodlanishi tillarning tipologik xususiyatlariga muvofiq farqlanadi.

Ingliz tilida mavjudlik semasining prototipik vositasi *there + be + NP* konstruksiyasidir. Biroq badiiy nutqda lokativ komponentning oldingi pozitsiyaga chiqarilishi natijasida inversiv modellar ham faol qo‘llanadi. O. Henryning “The Gift of the Magi” hikoyasidagi *“In the vestibule below was a letter-box...”* misolida *in the vestibule below* fazoviy doirani, *a letter-box* esa shu makonda mavjud obyektni bildiradi. Bu konstruksiya LOCATION + BE + ENTITY modeliga mansub bo‘lib, mavjudlik ma’nosining ingliz tilida faqat formal *there* vositasiga bog‘liq emasligini ko‘rsatadi.

O. Henryning “The Last Leaf” hikoyasida ham makon personajlarning yashash muhiti va syujet rivojini belgilovchi muhim semantik omil sifatida namoyon bo‘ladi. *“At the top of a squatty, three-story brick Sue and Johnsy had their studio.”* gapida *at the top of...* lokativ birikmasi studiyaning fazoviy o‘rnini aniqlaydi. Hikoyadagi *“There are only five left now.”* konstruksiyasi esa prototipik ekzistensional modelni namoyish etadi. Bunda obyektlarning konkret joyi oldingi kontekst orqali anglashiladi, demak, makon komponenti sintaktik jihatdan ochiq ifodalanmasa ham, semantik strukturaning tarkibida saqlanadi. Shuningdek, *“There is no hope for him...”* misoli ekzistensional modelning fizik makondan abstrakt mavjudlik sohasiga ko‘chishi mumkinligini ko‘rsatadi.

“The Furnished Room” hikoyasida xona va uning ichidagi predmetlarning joylashuvi badiiy makonni shakllantirishning asosiy vositalaridan biridir. Masalan, *“...a brass bedstead in a corner.”* birikmasida *in a corner* obyektning fazodagi konkret o‘rnini belgilaydi. Demak, O. Henry hikoyalarida mavjudlik va lokativlik *there + be*, lokativ inversiya va predmet + lokativ komponent kabi turli sintaktik modellar orqali voqelanadi.

O‘zbek tilida ekzistensionallikning ifodalanish imkoniyatlari nisbatan variativ bo‘lib, *bor, yo‘q, mavjud, turibdi* singari birliklar bilan bir qatorda lokativ kelishik, relatsion otlar, holat fe’llari va kontekstual nol predikatsiya ham ishtirok etadi. Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasidagi *“Ho‘kiz yo‘q, og‘il ko‘cha tomondan teshilgan...”* gapida *yo‘q* predmeti kutilgan makonda mavjud emasligini ifodalab, ekzistensional inkorning markaziy vositasiga aylanadi. *“Qobil bobo ... og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi.”* misolida esa *og‘il eshigi yonida* fazoviy orientirni, *turib* esa subyektning shu makondagi holatini bildiradi.

“Bemor” hikoyasidagi *“Shaharda bitta doktorxona bor.”* gapi o‘zbek tilidagi prototipik ekzistensional modelning yorqin namunasidir. Bu yerda *shaharda* - makon, *bitta doktorxona* - predmet, *bor* esa mavjudlik munosabatini ifodalovchi predikatdir. Mazkur model ingliz tilidagi *there + be + NP + location* konstruksiyasi bilan konseptual jihatdan mos kelsa-da, komponentlarning sintaktik joylashuvi bilan farqlanadi. Hikoyadagi *“...salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko‘milgan baland va chiroyli oq imorat...”* tasvirida esa fazoviy lokalizatsiya umumiy makondan konkret mikromakonga tomon bosqichma-bosqich aniqlashtiriladi.

Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasida makon deiktik va relatsion birliklarning birgalikdagi qo‘llanishi orqali aniqlashtiriladi. *“Xotini shu yerning o‘zida, eshik oldida o‘tirib tugunchani ochdi...”* gapidagi *shu yerning o‘zida* deiktik makonni, *eshik oldida* esa predmetga nisbatan belgilangan relatsion makonni bildiradi. Xuddi shuningdek, *“Hovli yuzida aylanib yurgan oqsoq mushuk...”* hamda *“Xotin darcha yonida ... osmonga qarab o‘tirar edi.”* kabi misollarda lokativ komponent harakat yoki holatning amalga oshish fazosini belgilaydi. Bu holat o‘zbek tilida makon kategoriyasining leksik, morfologik va sintaktik vositalar o‘zaro hamkorligida voqelanishini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlil natijasida ingliz va o‘zbek tillaridagi ekzistensional konstruksiyalar uchun umumiy konseptual asos PLACE - ENTITY - EXISTENCE munosabati ekanligi kuzatiladi. Biroq ingliz tilida ushbu munosabat ko‘proq grammatiklashgan *there + be* modeli yoki lokativ inversiya orqali ifodalansa, o‘zbek tilida *makon + predmet + bor/yo‘q* hamda *predmet + makon + holat fe’li* kabi modellar faol qo‘llanadi. O‘zbek tilida so‘z tartibining kommunikativ vazifaga ko‘ra o‘zgarishi va ayrim kontekstlarda ekzistensional predikatning formal ifodalanmasligi mumkinligi uning sintaktik variativligini kuchaytiradi. Ingliz tilining neytral ekzistensional qurilmalarida esa predikativ markazning formal ifodalanishi nisbatan barqarordir.

Badiiy matn materiallari shuni ham ko‘rsatadiki, ekzistensional va lokativ konstruksiyalar faqat obyektning fizik mavjudligini qayd etish bilan cheklanmaydi. Ular yangi referentni diskursga kiritish, voqea sodir bo‘ladigan fazoviy koordinatalarni belgilash hamda personajlarning ijtimoiy va psixologik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. O. Henry hikoyalaridagi xona, studio, devor va burchak singari mikromakonlar personajlarning ruhiy holati bilan uyg‘unlashsa, Abdulla Qahhor hikoyalaridagi hovli, og‘il, doktorxona, eshik va darcha kabi fazoviy birliklar qahramonlarning ijtimoiy-maishiy sharoitini konkretlashtiradi. Shu sababli ekzistensionallikni makon kategoriyasining nafaqat grammatik, balki funksional-semantik va diskursiv voqelanish mexanizmi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Tahlillar ingliz va o‘zbek tillarida ekzistensionallik makon kategoriyasining muhim semantik-sintaktik ko‘rinishi ekanini tasdiqlaydi. Har ikki tilda makon, predmet va mavjudlik munosabati universal konseptual asosni tashkil etsa-da, ushbu mazmunning lisoniy kodlanishi tipologik jihatdan farqlanadi. Ingliz tilida ekzistensional munosabat asosan grammatiklashgan *there + be* konstruksiyasi va lokativ inversiya orqali, o‘zbek tilida esa *bor, yo‘q* kabi birliklar, lokativ shakllar, relatsion otlar, holat fe’llari va sintaktik variativlik orqali yuzaga chiqadi. Bizningcha, mazkur farq ikki tildagi makon kategoriyasining konseptual umumiyligi bilan uning struktur-semantik voqelanishidagi asimmetriyani namoyon etadi. Shu bois makon kategoriyasini alohida til birliklari doirasida emas, balki leksik, morfologik va sintaktik vositalarning o‘zaro munosabatiga asoslangan ko‘psathli funksional-semantik tizim sifatida tadqiq etish ilmiy jihatdan samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Henry, O. The Four Million. New York: McClure, Phillips & Co., 1906. “The Gift of the Magi”; “The Furnished Room”. Project Gutenberg electronic edition.

2. Henry, O. The Trimmed Lamp and Other Stories of the Four Million. New York: Doubleday, Page & Company, 1907. “The Last Leaf”. Project Gutenberg electronic edition.
3. Qahhor, A. O‘g‘ri: hikoyalar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
4. Qahhor, A. Anor. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.
5. Qahhor, A. “Bemor”. Adabiyot. 6-sinf. 1-qism.
6. Nurmonov, A., Mahmudov, N. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent.
7. Benveniste, É. Problems in General Linguistics. Miami: University of Miami Press.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ETNIK O‘ZLIKNI ANGLASH MASALALARI XUSUSIDA

Raxmatov Xayrulla Bozorboevich
O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrasi assistenti

To‘xtaxonova Aqidaxon To‘raxon qizi
Filologiya va tillarni o‘qitish: Ingliz tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi aholisi etnik tarkibi, hududiy joylashuvi hamda etnik o‘zlikni anglash xususiyatlari tarixiy-etnografik jihatdan tahlil etilgan. Unda amirlik hududida o‘zbek, tojik, turkman, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz va boshqa etnik guruhlarning joylashuvi, ularning til, diniy mansublik, xo‘jalik faoliyati va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari yoritilgan. Ayniqsa, Buxoro shahri aholisi misolida “o‘zbek”, “tojik”, “buxorolik”, “musulmon”, “forsiy”, “eroniy” kabi etnik va ijtimoiy identifikatsiya tushunchalarining mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyodagi etnik jarayonlarda “turklashuv” va “turkiylashuv” tushunchalarining tarixiy mazmuni tahlil qilinib, mazkur jarayonlarni faqat mahalliy aholining boshqa etnos tomonidan majburiy ravishda turklashtirilishi sifatida talqin qilish biryoqlama ekanligi asoslangan. Maqolada Buxoro amirligi hududida etnik o‘zlikning shakllanishida uzoq davom etgan etnomadaniy jarayonlar, turli etnik guruhlarning o‘zaro aralashuvi, diniy birlik va umumiy siyosiy-madaniy makonning muhim omil bo‘lganligi ko‘rsatib berilgan.